

O‘ZBEK TILI TARIXI VA UNING MANBALARI

HISTORY OF UZBEK LANGUAGE AND ITS SOURCES

Sharof Rashidov nomidagi SamDu Urgut filiali

Pedagogika va tillarni fakulteti o‘qitish assistenti Yakubova S.H.

safiyayakubova1231@gmail.com

Allanazarova Sevinch 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

TNLning o'tmish tarixini o'rganish hozirgi tilning o'ziga xos xususiyati, uning Ob'ekt rivojlanish qonuniyatlarini chuqur va har tomonlama tushunish uchun keng imkoniyat yaratadi.. Xalxaning madaniy OT umumiy ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida uning tilni yengillashtiruvchi birinchi izidir. Shu ma'noda: "Til – xalqning Ma'naviy tamoyili, u asrlar davomida yashab o'tgan umrining eng to'liq va olijanob solnomasidir.

Kalit so'zlar: til tarixi, turkiy tillar, tarixiy-filologik manba.

Аннотация:

Изучение прошлой истории ТНЛ является особенностью нынешнего языка, его Объект создает широкую возможность для глубокого и всестороннего понимания законов развития. Тилни создает телят. Культурная ВЗ Халха в общесоциальном и историческом развитии является первым его следом, облегчающим язык. В этом смысле: «Язык есть Духовное начало народа, это самая полная и благороднейшая летопись веков его жизни.

Ключевые слова: история языка, тюркские языки, историко-филологический источник.

Annotation:

Studying the past history of the TNL is a feature of the current language, its object creates a broad opportunity for a deep and comprehensive understanding of the laws of development. Tilni creates calves. Halh's cultural VZ in generalsocial and historical development is the first of its tracesmakes language easier. In this sense:



"language is the Spiritual of the people it is the fullest and most noble Chronicle of centuries of his life.

Keywords: language history, turkic languages, historical-philological source

O'zbek tili turkiy tillarga mansub bo'lib, oltoy nazariyasiga ko'ra mo'g'ul, tungus-manjur, koreys va yapon tillari bilan birgalikda oltoy tillari oilasini tashkil qiladi. Shunga ko'ra turkiy tillarning, jumladan, o'zbek tilining tarixi, oltoy tillarining qadimda bir til bo'lgan — oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobo tili dastlab tungus-manjur va turk-mug'ul tillariga; turk mo'g'ul tili esa turk va mo'gul tillariga ajralgan. Shundan so'ng turkiy tillar tarixida xun davri (miloddan avvalgi uchinchi asrdan milodiy to'rtinchi asrgacha) boshlanib, turkiy tillar ikki tarmoqqa — sharqiy xun va g'arbiy xun tillariga bo'linadi. Turkiy tillar tarixida xun davrining aloqida ko'rsatilishiga o'sha davrda Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha bo'lgan hududni ishgo'ol qilgan Xun xonligining vujudga kelib, keyinchalik ikkiga ajralishi asos qilib olinadi. So'ngra milodning beshinchi asridan o'ninchi asrigacha bo'lgan uzoq vaqtni o'z ichiga olgan turk davri keladi. Umumxalq o'zbek tilining tarixi oltoy davridan boshlansa, o'zbek adabiy tilining tarixi yozma yodgorliklari ma'lum bo'lgan qadimgi turk davridan boshlanadi. Bu davrning obidalari barcha turkiy xalqlar uchun mushtarakdir. Hozirgi o'zbek tili qadimgi turkiy tilidan ajralib chiqqan. Turkiy tillar o'rtasidagi qarindoshlik, yaqinlik sintaktik qurilmalarning birligida, so'z o'zgartuvchi, so'z yasovchi, shakl yasovchi affikslarning o'xshashligida, tovush tuzilishi va lug'at boyligidagi barqaror, zaruriy tushunchalarni bildiradigan so'zlarning umumiyligida yaqqol ko'rinadi. Ana shu umumiy belgilarga to'g'ri kelmaydigan fonetik, leksik va qisman grammatik farqlar til tarixi taraqqiyotining so'nggi davrlarida paydo bo'lgan xususiyatlardir. Hozirgi turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlari ularning mustaqil tillar sifatida taraqqiy etishidan dalolat beradi. [Abdurahmonov G'. Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Toshkent, 1982]. O'zbek tili turkiy guruhga kiruvchi tillardan biri bo'lib, undagi fonetik, morfologik, sintaktik, leksik o'xshashliklar Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi uyg'ur, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman xalqlarining tillarida ko'proq uchraydi. Bu o'zbek xalqining til jihatdan yuqoridagi xalqlar bilan uzoq vaqtlardan buyon ijtimoiy munosabatda bo'lib kelganligining natijasidir. Shuning uchun ham ma'lum o'ziga xoslikni hisoblamaganda, o'zbek, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoqlar bir-birlarini qiynalmasdan tushuna oladi. Ularning yashash sharoitlari, urf-odatlar va diniy e'tiqodlarida ham mushtaraklik bor. Agar yoqut,



tuva, xakas tillarini olsak, bularda o‘zbek tili bilan mushtaraklik bo‘lsa ham, lekin uzoq vaqtlardan beri ijtimoiy aloqaning bo‘lmaganligi (ruslar bilan bo‘lgani), yashash sharoitlarining, tirikchiligining har xilligi tufayli til xususiyatlarida farqlar ko‘p. Birgina leksikasini olsak, masalan, yoqut tilida chorvachilik bo‘yicha kiyik, los tarmoqlari rivojlangan. Ana shu sohaga oid so‘z-atamalar juda ko‘p. Bog‘dorchilik, paxtachilik, poliz ekinlariga oid so‘z-atamalar yo‘q. O‘zbek tilida esa bu sohaga xos so‘zlar juda ko‘p. Bunday o‘xshashlik va farqlarni Volgabo‘yi, Kavkaz, Sibir va boshqa hududlarda yashaydigan turkiy xalqlarning tillarida ham uchratish mumkin. Turkiy tillar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli xususiyatlar fonetika, morfologiyadagina emas, balki leksikada ham yaqqol ko‘rinadi. Masalan: o‘zbek tilida boshq; uyg‘ur tilida bashaq-mashaq; qozoq, qoraqalpoq tillarida masaq; turkman tilida summul (ar. sumbula); yoqut tilida kuolas (rus, kolos) va sh. k. Turkiy tilli xalqlar miqdor jihatdan dunyoda katta o‘rin tutadi. Ular: I. Mustaqil davlatlariga ega bo‘lgan turkiy xalqlar: 1) turk, 2) o‘zbek, 3) qozoq, 4) turkman, 5) ozarbayjon, 6) qirg‘iz. II. Muxtor jumhuriyatlardagi turkiy xalqlar: 7) qoraqalpoq, 8) tatar, 9) boshqird, 10) tuva, 11) chuvash, 12) yoqut. III. Muxtor viloyatlardagi turkiy xalqlar: 13) oltoy, 14) xakas. IV. Ko‘pmillatli jumhuriyatlar va muxtor jumhuriyatlarda yashovchi turkiy xalqlar: 15) gagauz (Moldova), 16) qorachoy-bolqor (Kabardin-Bolqor muxtor jumhuriyati va Qorachoy-Cherkas muxtor viloyati), 17) qrim-tatar (Qrim, O‘zbekiston va Qozog‘iston), 18) humiq (Dog‘iston muxtor jumhuriyati), 19) no‘g‘oy (Rossiya). V. 20) uyg‘ur (Sharqiy Turkiston, shuningdek, Qozog‘iston va O‘zbekistonda ham yashaydi). Turkiy tilda so‘zlashuvchi yana shunday elatlar mavjudki, ularning ona tili, asosan, maishiy hayotda foydalaniladi, ijtimoiy vazifasi juda chegaralangan. Ular o‘zlarining rasmiy yozuvlariga ega emas. Zarurat tug‘ilganda, eski alifbodan foydalanadilar. Bunga karaim, shor, chulim tillari kiradi. Ushbu tillar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar Afgoniston, Eron, Xitoy, Yugoslaviya, Albaniya, Gretsiya va boshqa xorijiy mamlakatlarda ham yashaydi. Bulardan birgina o‘zbeklarni olsak, O‘zbekistondan boshqa Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Qorahalpog‘istonda ham bu tilda so‘zlashuvchi millionlab o‘zbeklar istiqomat hiladi. O‘zbeklar xorijiy o‘lkalardan Afg‘onistonda, Xitoyning uyg‘urlar yashaydigan viloyatlarida, Turkiya, Eron isman Germaniya, Amerika va boshqa joylarda turg‘un bo‘lib qolganlar. O‘zbek tilining obro‘yi keyingi yillarda ortib bormoqda. Bu til hozir Amerikaning ko‘pgina universitetlarida, Germaniya, Turkiya, Hindiston va Afg‘onistonda alohida o‘rganilmoqda. O‘zbek tili, uning tarixi va mumtoz adabiyotimizga oid kitoblar, ilmiy tadqiqotlarning xorijda nashr qilinishining o‘ziyoq fikrimizni tasdiqlaydi. XV



asr olamida ulug‘ mutafakkir shoir, madaniyat va davlat arbobi Alisher Navoiyning mashaqqatli mehnati, izlanishlari hamda Husayn Boyqaroning homiyligi tufayli turkiy tillar orasida o‘zbek tilining mavei davlat miqyosiga ko‘tarilgan edi. Ana o‘sha vaqtda adabiy til bo‘la oladi deb amaliy va nazariy jihatdan isbotlangan eski o‘zbek (turkiy) tilimiz bizning davrimizgacha o‘zining asosiy fonetik, grammatik qurilishi va lug‘at xususiyatlarini saqlagan holda yetib keldi. Hozirgi tilimiz eski o‘zbek adabiy tilining davomi — o‘zbek xalqining davlat tili sifatida keng xalq ommasiga xizmat kilib kelmoqda. [N. A. Baskakov, 1981: 118-119].

Agar til madaniyat ko‘zgusi bo‘lsa, xalqning moddiy, ma'naviy va madaniy saviyasi, birinchi navbatda, uning tilida namoyon bo‘ladi. O‘zbeklar o‘z tillarida (bir necha alifboda) juda ko‘p badiiy, tarixiy-filologik, jug‘rofiy va boshqa yozuv yodgorliklarini yaratganlarki, ular o‘zbek adabiy tili tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. O‘zbek xalqi madaniyati tarixi taraqqiyotida o‘zbek adabiy tili ulkan rol o‘ynagan. O‘zbek (turkiy) tilida davrlar osha yozilgan badiiy, tarixiy, ilmiy yodgorliklar umumxalq tilining eng yaxshi xususiyatlarini o‘zida saqlagan bo‘lib, xalqimizning qadimgi madaniyatini aks ettirgan obidalar ham hisoblanadi. Bizgacha yetib kelgan obidalarni kuzatish orqali xalqimiz tarixi va tilimiz tarixiy taraqqiyotiga oid ko‘pgina qimmatli ma'lumotlarga ega bo‘lamiz. XI -XIV asrlarda yaratilgan asarlarning ko‘pchiligi turkiy xalqlarning mushtarak merosidir. Bunga Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig", Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk" (XI asr), Ahmad Yassaviy "Hikmatlar" i (XI asr oxiri XII asrlar), Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" (XII asr oxiri XIII asrlar), Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Qutbning "Xusrav va Shirin", Rabg‘uziyning "Qissasi Rabg‘uziy", "Nahjul Farodis" (XIV asr), "Me'rojnoma" kabi asarlarni ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, XV asrning birinchi yarmida Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Yusuf Amiriy, Yaqiniy, Gadoiylar tomonidan rivojlantirilgan va ulug‘ Navoiy yuksak cho‘qqiga olib chiqqan eski o‘zbek tilimiz tufayli o‘zbek adabiyoti, fani, madaniyatining shuhrati olamga yoyildi. XV asrda Navoiy va uning safdoshlari boshlab bergan adabiy til an'anasiga to XIX asrning II yarmigacha o‘z mavqegini saqlab, davom etib keldi. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotining barcha yo‘llari bilan uzluksiz bog‘langan. Bu o‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirishda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, o‘zbek xalqi tarixining qadimgi davrlari yaxshi o‘rganilmagan. Bu davrlarda yaratilgan yozuv yodgorliklari va ularning til xususiyatlari ham hozirgi fan talabi darajasida tadqiq etilmagan. Shuning uchun qadimgi yozuv an'anasiga ega bo‘lgan til tarixini davrlashtirish masalasi ancha mushkul. Turkshunoslar tasniflarining turli-tumanligi ham fikrimiz dalilidir. Adabiy til tarixini davrlashtirishda asosiy sifat o‘zgarishlarini,



xususan, fonetika va morfologiyada sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni hisobga olish lozim bo‘ladi. Qadimgi yodnomalar qaysi alifbo asosidagi yozuvda yaratilgan bo‘lishi hech qanday ahamiyatga ega emas. O‘zbeklar yirik turkiy xalqlardan bo‘lib, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, ularning ota-bobolari qadimdan O‘rta Osiyo xududining asosiy aholisi bo‘lgan. O‘zbeklar umumbashariy madaniyatni yaratuvchi boshqa xalqlar qatorida uzoq vaqtlardan beri jahon madaniyati xazinasiga o‘z ulushini qo‘shib kelmoqda. Ajdodlarimiz insoniyatga juda ko‘p buyuk fan va madaniyat arboblari yetkazib bersdi. Ular fan-madaniyatning turli sohalarida aql-zakovatlari bilan insoniyatni hayratda qoldiradi. O‘zbek xalqi o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lib, o‘tmishdan to XIX asrning II yarmigacha turk, sart, chig‘atoy va nihoyat o‘zbek atamallari bilan yuritilib kelgan. Dastavval o‘zbek xalqi turk nomi bilan yuritilgan. Shuni ham aytish kerakki, o‘zbeklargina emas, O‘rta va Markaziy Osiyoda yashaydigan barcha turkiy xalqlar turk nomi bilan yuritilgan. Jumladan, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman, uyg‘ur, Volga buyidagi tatar, boshqird, chuvash; Kavkazdagi ozarbayjon, qumiq, no‘g‘oy va Sibirdagi oltoy, xakas, tuva, yoqut kabi xalqlar ham turk detalgan. Ularning tillari esa turkiy til deyilgan. Turk atamasining kelib chiqishi ko‘p olimlarni qiziqtirib keladi. Bunga bag‘ishlangan tadqiqotlar bo‘lishiga qaramay, haligacha turk atamasining kelib chiqish masalasi aniq hal qilinmagan. Turk atamasi haqida ma‘lumotlar Sharq manbalarida milodiy VI asrdan, g‘arb manbalarida esa VII asrdan uchraydi. V. V. Bartoldning fikricha, turk atamasi dastlab siyosiy-ijtimoiy ma‘noni anglatgan. U qabilalar harbiy uyushmasining nomini bildirgan. Keyinchalik elat va til guruhining nomi ma‘nosida qo‘llangan. Bu fikrni A. N. Bernshtam va S. P. Tolstov ham kuvvatlaydi. Agar biz O‘rxun-Enasoy bitiglaridagi turk atamasini nazarda tutsak, u qabilalar uyushmasi ma‘nosidadir. VI asr o‘rtalarida Oltoy, yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli, lekin bir-biriga yaqin lahjalarda so‘zlashuvchi qabila va elatlar birlashib, yirik turk xoqonlig‘ini barpo etganlar. VI—VIII asrlarda ana shu turk xoqonlig‘i siyosiy-ijtimoiy uyushmasiga kirgan qabilalar guruhiga "turklar" degan umumiy nom berilgan edi. O‘rxun-Enasoy bitigtoshlarida bu atama "turk bo‘dun", "qora budun" yoki "ko‘k turk" tarzida keng qo‘llanilgan. "Budun" so‘zi xalq degani "qora budun" oddiy xalqni, ko‘k turk dagi "ko‘k" esa "erkin, ozod" ma‘nosini anglatgan. Xitoy yilnomalarida ham turk nomi uchraydi. U manabalarda tuk-yu-tug-yu shaklida ho‘llangan. Ya'ni xitoylarda r tovush ishlatilmagan. Bulardan tashhari xitoy tilining Konton dialektida tark (~ tork) — ut — turklar so‘zi uchraydi, u dubulg‘a (shlem), alohida jangchilar, qurolsozlar toifasini anglatgan. Suy dinastiyasi tarixining izohlarida (580—619) tug-yu so‘zining dubulg‘a so‘ziga aloqadorligi ta'kidlangan.



Qadim eron tilida ham tark soʻzi dubulgʻa maʼnosini bildirgan. Turk nomi askarlarning bosh kiyimiga nisbatan berilganligi ham ehtimoldan holi emas. Tarixda ayrim xalqlarning nomlanishi ularning bosh kiyimlariga nisbatan boʻlganligi haqida tahminlar bor "Muhokamatul lugʻatayn" asarida oʻzbek xalqini turk, uning tilini turk tili deb, amalda turk, turkiy, turk ulusi, turk tili, turkiy til, turkiy alfoz kabi soʻz va iboralarni keng qoʻllagan. «Boburnoma»da va uygʻur yozuvli qadimgi yodgorliklarda turk soʻzi "kuchli, qudratli" maʼnolarida qoʻllangan: Turk va mardona kishi edi (Boburnoma). V. V. Radlov turk atamasi ustida toʻxtalib, VI — VIII asrlardagi urugʻ nomidan kelib chiqqan deydi. G. Vamberining fikricha, turk soʻzi "sodda" maʼnosini bildirgan. Qiyoslang, "turkona odam, turkana dori" kabi. "Turk atamasi taqlilidan bir tajriba" maqolasida "turk" soʻzi etimologiyasiga aloqador tadqiqotlarga ancha mukammalroq izoh beradi. G. F. Blagovanning ham "turk" soʻzining rus tilida qoʻllanib kelgan variantlari xususiga bagʻishlangan maqolasida ushbu soʻzning ishlatilish tarixi atroflicha tadqiq qilingan. Shunday qilib, turk soʻzining oʻtmishda urugʻ, elat, kuchli, qudratli, alohida jangchilar guruhi, qurolsozlar, dubulgʻa, sodda maʼnolari boʻlgan. Shuningdek bu nom oʻzbek va boshqa turkiy tilli xalqlarga nisbatan ham qoʻllangan (turkiy, qashqar turkiysi, oʻzbek turkiysi, turkman turkiysi va sh. k.). Sart atamasi haqida. XVI asrdan keyin oʻzbeklarning maʼlum bir qismi — shahar aholisi sart deb ataladigan boʻldi.

Sart soʻzining maʼnosi haqida turli qarashlar mavjud. Ayrim manbalarda sart atamasi oʻzbek va tojiklardan boshqa alohida elatni ifodalaydi deb taʼkidlansa, boshqa manbalarda bu soʻz mahalliy xalqni kamsitish uchun rus mustamlakachilari tomonidan oʻylab chiqarilgan — haqoratni bildiruvchi soʻz deyiladi. Bizningcha, sart atamasi alohida elatning nomini bildirgan emas. Shuningdek, oʻzbeklarni tahqirlash uchun ham ishlatilmagan. XVI asrdan boshlab, Chirchiq, Ohangaron, Qoradaryo va Norin daryosi vodiysida yashovchi aholi, ularning qaysi tilda soʻzlashishlaridan qatʼiy nazar, sartlar deyilgan. Bundan soʻngroq Zarafshon vodiysi va Xorazm vohasidagi oʻtroq dehqon-kosib, hunarmand aholi ham sart nomi bilan yuritila boshlagan edi. Demak, sart atamasi etnik maʼnoni emas, kishilarning kasbi, xoʻjaligi, turmush tarzini anglatgan. Sart atamasi birinchi marta Yusuf Xos Hojibning "Qutadgu bilig" (XI asr) asarida uchraydi: Eshitkil neku ter bu sartlar bashi. Bunda sartlar alohida guruh boʻlib, ularning boshliqlari ham boʻlgani xususida gap boradi. Mahmud Koshgʻariyning "Devonu lugʻatit turk" asarida ham sart soʻzi "savdogar" maʼnosida qoʻllangan. Sart atamasi aslida sanskrit tilida olingan boʻlib, "karvonboshi, savdogar, shaharlik" maʼnolarini anglatgan.



XIX asr II yarmidan keyin sart atamasi o'zbek ma'nosida ishlatiladigan bo'ldi: sartiya eli, sartiya lisoni (lisoni sartiya, sart tili, sart iborati, sart qavmlari, "Sartcharuscha so'zluk" va sh. k.) Chig'atoy atamasi haqida. Chig'atoy atamasi mo'g'ullar istilosidan keyin paydo bo'lgan. Chingizxon vafotidan oldin bosib olgan qo'l ostidagi o'lkalari o'g'il va nabiralari o'rtasida taqsimlangan edi. Shunda O'rta Osiyo va Shimoliy Afg'oniston zamini o'rtanacha farzandi Chig'atoyga berilgan. Chig'atoyxon tasarrufiga qaraydigan yerlar chig'atoy yurti, eli; elatlar esa Chig'atoy ulusi; bu hududda yaratilgan adabiy, tarixiy asarlar chig'atoy adabiyoti, uning tili (umuman shu xududdagi xalqlar tili) chig'atoy tili nomi bilan yuritiladigan bo'ldi. Demak, chig'atoy atamasi hukmdor nomi bilan bog'langan. Navoiy "Chor devon" ida chig'atoy, jo'ji atamaları urug' (habila) kishilar to'dasi, guruhi nomlarini bildirgani hahida ma'lumot berilgan: Turk qavmlari jo'jidur, inoq, chig'atoy. Chig'atoy nomi hozir ham respublikamizning turli yerlaridagi joy, suv nomlarida, kishilar ismida saqlangan: Chig'atoy Oqtepa, Chig'atoy ko'chasi, Chig'atoy mahalla, Chig'atoy qishlog'i, Chig'atoyxon, Chig'atoynisa, Chig'atoev va sh. k. Turkshunoslikda ba'zan chig'atoy adabiyoti va chig'atoy tili, chig'atoy turkiysi atamaları uchraydi. Bu o'rindagi chig'atoy adabiyoti atamasini, o'zbek mumtoz adabiyoti deb tushunmoq kerak. Chig'atoy tili, chig'atoy turkiysi atamasi esa eski o'zbek adabiy tilini anglatadi.

. Umuman olganda, o'zbek tilining tarixiy ildizlari chuqur ekanini dalillaydigan tadqiqotlar davom etishi lozim. Buning uchun esa turkiyshunoslik fan sifatida O'zbekistonda qaror topishi va bizning mamlakatimiz jahon turkiyshunosligining markazi bo'lishi kerak, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ф. Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
2. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. Тошкент: Фан, 1984.
3. Благова Г. Ф. Тюркское склонение в ареально-сторическом освстении. - М.:Наука, 1982.
4. Дадабаев Х. Обвдественно-политическая и социальноэкономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI — XIV вв.- Ташкент: Фан, 1991.
5. Древнетюркский словарь. -Л.:Наука, 1969.
6. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности.-М.-Л.:Наука, 1\



7. Yakubava S.H. American Journal of Science and Humanity Research. Comparative analysis of the interpresentation as a genre in travel novels in Uzbek and world literature. <http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/1015> 2023.7.164
8. Yakubova, S. H. (2024). Ismoilxon Faqiriy o'zbek adabiyotida yangi va yorqin ijodkor. Innovative development in educational activities, 3(5), 20–27.
9. Yakubova S.H. Fakiri is a brilliant creator of Uzbek literature as a sheikh, sage, and scientist.– Foreign Linguistics and Linguodidactics. Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>
10. Якубова С. Х. Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia Date: 11th April, 2024 ISSN: 2835-5733 Website: econferenceseries.com 149 | Page ФАКИРИ КАК ЯРКИЙ ТВОРЕЦ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

